

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**ABDURASULIYEVA GULSHAD MAXSETBAYEVNA**

**QORAQALPOG‘ISTONDA O‘SADIGAN ODDIY SHAFTOLI  
(*PERSICA VULGARIS MILL.*) BARGLARINI FITOKIMYOVIY  
TADQIQ QILISH**

**02.00.10-Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Abdurasuliyeva Gulshad Maxsetbayevna**

Qoraqalpog‘istonda o‘sadigan oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglarini fitokimyoviy tadqiq qilish..... 3

**Абдурасулиева Гулшад Махсетбаевна**

Фитохимическое исследование листьев персика обыкновенного (*Persica vulgaris Mill.*), произрастающего в Каракалпакстане..... 21

**Abdurasuliyeva Gulshad Maxsetbayevna**

Phytochemical study of peach leaves (*Persica vulgaris Mill.*) growing in Karakalpakstan..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**ABDURASULIYEVA GULSHAD MAXSETBAYEVNA**

**QORAQALPOG‘ISTONDA O‘SADIGAN ODDIY SHAFTOLI  
(*PERSICA VULGARIS MILL.*) BARGLARINI FITOKIMYOVIY  
TADQIQ QILISH**

**02.00.10-Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1PhD/K730 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) va “ZiyoNet” Axborat ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Farmanova Nodira Taxirovna</b> kimyo fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Matchanov Alimjan Davletbayevich</b> kimyo fanlari doktori, professor <b>Nishonov Mirkozimjon</b> texnika fanlari nomzodi, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Qo‘qon davlat pedagogika instituti</b>

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.05.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi, 19. Tel.:(99873) 244 44 02, faks: (99873) 244 44 93, e-mail: [fardu\\_info@umail.uz](mailto:fardu_info@umail.uz).)

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi, 19 uy. Tel.:(99873) 244 44 02, faks: (99873) 244 44 93, e-mail: [fardu\\_info@umail.uz](mailto:fardu_info@umail.uz))

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**V.U.Xo‘jayev**  
Ilmiy daraja beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
kimyo fanlari doktori, professor

**Sh.Sh.Turg‘unboyev**  
Ilmiy daraja beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi, kimyo fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Sh.V.Abdullayev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
kimyo fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda inson salomatligi uchun zarur bo‘lgan, turli kasalliklarni oldini olish va davolashda foydalaniladigan biologik faol moddalarga ega bo‘lgan dorivor o‘simliklarni o‘rganishga oid tadqiqotlarga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘simlik manbaalaridan olinadigan biologik faol birikmalar preparatlari xavfsiz va uzoq muddatli foydalanish imkoniyati mavjudligi hamda tabiiy birikmalarning majmuaviy ta’siri bilan sintetik doir vositalariga nisbatan samarali ta’sirga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ma’lumki, tabiiy vositalarning samarasi ular tarkibidagi flavonoidlar, efir moylari, polisaxaridlar, vitaminlar va boshqa birikmalar o‘ziga xos biologik faolligi bilan izohlanadi. Tarkibida biologik faol birikmalar saqlovchi o‘simliklarni kimyoviy jihatdan tadqiq etish hamda ular asosida tibbiyot amaliyoti uchun dori vositalarini yaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahonda *Rosaceae* oilasiga mansub o‘simliklarning kimyoviy tarkibini o‘rganish orqali biologik faol moddalarining asosiy guruhleri hamda ularning farmakologik faolligini aniqlash borasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu oilaga mansub oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) o‘simligidan tibbiyotda immunomodulyator, antioksidant, shuningdek yallig‘lanishga qarshi va og‘riq qoldiruvchi vosita sifatida keng ishlatilib kelmoqda. Ushbu xususiyatlarni inobatga olib sifatli, xavfsiz, samarador va kafolatlangan dori vositalari va biologik faol qo‘shimchalar ishlab chiqish maqsadida iste’mol uchun qulay shakllarini ilmiy asoslangan tarkiblarini yaratish hamda amaliyotga joriy etishga e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mahalliy o‘simliklar asosida samarali, import o‘rnini bosuvchi dori vositalari va biologik faol qo‘shimchalar yaratish borasida bir qator izlanishlar olib borilgan hamda muayyan natijalarga erishilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi “2022-2026 yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>1</sup> gi PF-55 sonli farmoniga asosan biologik faol birikmalarni olish usullarini takomillashtirish, “dori vositalari, tibbiy buyumlari va tibbiyot texnikalarini ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni yanada tatbiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlanmalarni tashkil etish hamda takliflar kiritish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish”ga yo‘naltirilgan vazifalar belgilab berilgan. Bu borada yuqori farmakologik ta’sirga ega bo‘lgan oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) o‘simligi barglaridan yallig‘lanishga qarshi, bitishi qiyin bo‘lgan yaralarni va saraton kasalligini davolashda foydalaniladigan biologik faol birikmalarni ajratib olish va ular asosida import o‘rnini bosuvchi dori vositalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi № PQ-4670-son “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslaridan oqilona foydalanish chora-

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi «2022-2026 yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» № PF-55 sonli farmoni.

tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 20 maydagi PQ-251-son "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>2</sup> qarorlari va mazkur sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlardagi belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi.** Ushbu tadqiqot Respublika fan va texnikasini rivojlantirishning VI. "Tibbiyot va farmakologiya" va VII. "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalari" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq amalga oshirildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ilmiy adabiyotlar ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, Abu Ali ibn Sino shaftoli barglaridan yallig'lanishga qarshi, bitishi qiyin bo'lgan yaralarni va saraton kasalligini davolashda foydalangan. Dunyo miqyosida shaftoli barglarini yallig'lanishga qarshi, antioksidant, o'sma jarayonlari, yurak qon-tomir tizimi kasalliklari, ikkilamchi immunitet tanqisligi holatlarini davolashda qo'llash imkoniyatlari, sifat va chinlik ko'rsatkichlari hamda kimyoviy birikmalarini o'rganish bo'yicha chet el olimlaridan L.V.Ivantsova, O.L.Blinova, A.A.Gileva, V.D.Belonogova, A.B.Savenkova, N.V.Nesterova, M.O.Denisova, A.N.Avstrieviskix, O.G.Pozdnyakova, M.A.Kazakova, S.Yu.Garmashov, V.M. Poznyakovskiy, G.M.Safonova, E.A.Dunyasheva, E.S.Mostafa, A.Maher, D.A.Mostafa, S.S.Gad, M.A.M.Nawwar, N.Swilam kabi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarni alohida qayd qilish lozim.

Ushbu o'simlik barglari, gullari va ulardan olingan ekstraktlarini kimyoviy tarkiblarni o'rganish borasida yurtimiz olimlari I.Yu.Mamatova, I.R.Asqarov, M.X.Mamaraxmanov, R.B.Karabaeva, A.A.Ibragimov va O.M.Nazarovlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq mahalliy sharoitda yetishtirilgan oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibidagi flavonoidlari, polisaxaridlari, erkin aminokislotalari, makro-va mikroelementlari, amigdalin va efir moyi hamda uchuvchan birikmalarining fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tematik rejasiga muvofiq "Qoraqalpog'istonda o'sadigan oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) o'simligining (Elberta navi) barglarini kimyoviy komponentlari va biologik faolligini o'rganish hamda biologik faol qo'shimcha olish" mavzusidagi ilmiy yo'nalish bo'yicha bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglarining kimyoviy tarkibi va biologik faolligini aniqlash, uning quruq ekstrakti asosida immunomodulyator, yallig'lanishga qarshi hamda antioksidant ta'sirlarga ega biologik faol qo'shimcha ishlab chiqishdan iborat.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi PQ-251-son qarori "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish to'g'risida"gi qarori

### **Tadqiqotning vazifalari:**

oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibidagi flavonoidlarni YuSSX usuli yordamida tahlil qilish;

oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibidagi suvda eruvchan polisaxaridlar, pektin moddalari va gemisellyuloza miqdorini hamda polisaxaridning monasaxarid tarkibini tahlil qilish;

oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibidagi erkin aminokislotalarni miqdorini YuSSX usulida aniqlash;

oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibidagi makro-va mikro, essensial elementlar va og'ir metall tuzlarining tarkibini IBP-MS usulida tahlil qilish;

oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglarini tarkibidagi amigdalin va suvda eruvchan vitaminlarning va organik kislotalar miqdorini YuSSX usulida miqdoriy aniqlash;

oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) o'simligi barglari tarkibidagi efir moyi miqdorini GX-MS usulida tahlil qilish;

oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari quruq ekstrakti asosida biologik faol qo'shimcha tarkibini yaratish va unga me'yoriy-texnik hujjatlar ishlab chiqish;

oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari, quruq ekstrakti hamda biologik faol qo'shimchani o'tkir zaharliligi, immunomodulyator, yallig'lanishga qarshi ta'sirlarini o'rganish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi Qong'irot tumanida o'sadigan odiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) o'simligi "Elberta" navining barglari va undan olingan quruq ekstraktning kimyoviy birikmalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** odiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglarining kimyoviy tahlili, jumladan flavonoidlari, erkin aminokislotalari, suvda eruvchan polisaxaridlari, makro-va mikro elementlari, organik kislotalari, efir moyi va ularning biologik faolliklari, immunomodulyator, yallig'lanishga va o'sma kasalliklariga qarshi ta'siri, o'tkir zaharliligini aniqlash hamda uning asosidagi biologik faol qo'shimchani tibbiyot amaliyotiga tatbiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishini bajarishda an'anaviy va zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan qog'oz va yupqa qatlamli xromatografiya, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, induktiv-bog'langan plazmali mass-spektrometriya, IQ-spektroskopiya, suyuqlik xromatografiyasi mass-spektrometriya va gaz xromatografiyasi, MestReNova dasturi yordamida qayta ishlashda PubChem moddalar bazasidan, shuningdek, biologik (formalinli yallig'lanish, timus atrofiyasi), mikrobiologik va toksikologik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Qoraqalpog'iston Respublikasi Qong'irot tumanida o'suvchi odiy shaftoli o'simligi (Elberta navi) barglarining biologik faol moddalari (flavonoidlar, polisaxaridlar, aminokislotalar, vitaminlar, organik kislotalar, efir moyi, amigdalin, furokumarin) ning kimyoviy tabiati va miqdori aniqlangan;

oddiy shaftoli (Elberta navi) o'simligi barglari tarkibidagi uchuvchan moddalarning o'rganilishi natijasida 53 ta birikma mavjudligi isbotlangan;

induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya usuli yordamida odiy shaftoli (Elberta navi) barglari tarkibida 44 ta element mavjudligi, zaharli og'ir metall ionlari esa O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi gigiyenik normativlaridagi ruxsat etilgan darajadan past ekanligi isbotlangan;

ilk bor odiy shaftoli (Elberta navi) barglari erkin aminokislotalar miqdori aniqlangan hamda barcha oqsil tuzuvchi aminokislotalarning manbai ekanligi isbotlangan;

ilk bor odiy shaftoli (Elberta navi) barglarining tarkibida suvda eruvchi polisaxaridlar, pektin moddalari, gemisellyulozalar ajratib olindi. Monasaxarid tarkibi arabinogalaktanlarga mansub ekanligi va polisaxaridlarning eng ko'p miqdori gemisellyulozalar ekanligi isbotlangan;

oddiy shaftoli (Elberta navi) barglari tarkibida suvda eruvchi vitaminlardan C, PP va B guruhi vitaminlari mavjudligi, quruq ekstrakt tarkibida vitaminlarning miqdori, barglariga nisbatan uch baravar yuqori ekanligi isbotlangan;

oddiy shaftoli (Elberta navi) barglari quruq ekstrakti o'tkir zaharliligini aniqlash natijasida ularni IV-guruh "zaharsiz birikmalar" sinfiga tegishli ekanligi isbotlangan;

oddiy shaftoli (Elberta navi) barglari quruq ekstrakti asosida yangi biologik faol qo'shimcha ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotlar amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oddiy shaftoli (Elberta navi) barglari quruq ekstrakti asosida "Halsica" MChJ bilan birgalikda "SELPERS-KR" biologik faol qo'chimchani tarkibi ishlab chiqilgan;

oddiy shaftoli (Elberta navi) barglari va undan olingan quruq ekstraktning yallig'lanishga qarshi va immunomodulyator ta'siri aniqlangan;

oddiy shaftoli (Elberta navi) barglarining quruq ekstrakti Erlix adenokarsinoma o'sma shtammida o'sma o'sishining I-bosqichida o'smaga qarshi faolligi isbotlangan;

"SELPERS-KR" biologik faol qo'chimchaga me'yoriy-texnik hujjatlar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Olingan natijalarining ishonchlilik darajasi zamonaviy fizik-kimyoviy, tibbiy-biologik, mikrobiologik tadqiqot usullari asosida tahlil qilinganligi, tadqiqot natijalarini statistik ishlashda Studentning t-mezonidan foydalanilganligi va tajriba-sanoat sharoitida sinovdan o'tkazilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, odiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) o'simligi "Elberta" navi ning barglari tarkibidagi flavonoidlar, polisaxaridlar, suvda eruvchan vitaminlari, makro va- mikro elementlari, erkin aminokislotalari, organik kislotalari va efir moyi tarkibi zamonaviy fizik-kimyoviy uslublari yordamida tahlil qilinganligi bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, mahalliy sharoitda yetishtirilgan o'simlik xom ashyosi asosidagi "SELPERS-KR" biologik faol qo'shimchasining immunomodulyator, yallig'lanishga va saratonga qarshi ta'sirlari o'rganilganligi,

“SELPERS-KR” BFQ ga foydali model olish uchun O‘zR Adliya vazirligi Intellektual mulk agentligiga talabnoma hamda unga me‘yoriy-texnik hujjatlar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oddiy shaftoli (Elberta navi) o‘simligi barglarining kimyoviy birikmalari va biologik faolligini tekshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

oddiy shaftoli (Elberta navi) barglari asosida olingan “SELPERS-KR” ozuqaga biologik faol qo‘shimchasi uchun Texnik shartlar va Texnologik yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan (Ts 301969106-02:2022; TI 301969106-02:2022). Mazkur Texnik shartlar va Texnologik yo‘riqnoma sifatli biologik faol mahsulot ishlab chiqarish imkonini bergan;

oddiy shaftoli (Elberta navi) barglari quruq ekstraktidan “Halsica” xususiy korxonasida yallig‘lanishga qarshi va immunomodulyator xususiyatiga ega “SELPERS-KR” ozuqaga biologik faol qo‘shimchani ishlab chiqarishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2023 yil 16 avgustdagi 001863-sonli ruxsatnomasi). Natijada “SELPERS-KR” biologik faol qo‘shimchasini sanoat miqyosida ishlab chiqish va ichki bozorda yallig‘lanishga qarshi, immunomodulyator mahalliy BFQ assortimentini kengaytirish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya ishi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya kommissiyasining falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan 5 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlantirish yo‘nalishiga muvofiqligi keltirilgan bo‘lib, tadqiqotning ilmiy yangiligi ha‘mda amaliy natijalari bayon qilingan. Natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish asoslari keltirilgan va nashr qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Adabiyotlar sharhi**” deb nomlangan birinchi bobida oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) o‘simligining kimyoviy birikmalari (flavonoidlar, polisaxaridlar, aminokislotalar, vitaminlar, organik kislotalar, efir moyi, amigdalın) va biologik faolligini o‘rganish bo‘yicha bajarilgan xorijiy hamda mahalliy ilmiy tadqiqotlarning sharhi keltirilgan. Shu bilan bir qatorda, uning asosiy ta‘sir qiluvchi birikmalaridan biri bo‘lgan flavonoidlarni umumiy tavsifi va

zamonaviy tahlil usullari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Adabiyotlarni retrospektiv tahlili dissertatsiya ishining maqsad hamda vazifalarini shakllantirish imkonini bergan.

Dissertatsiyaning **“Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglarining fitokimyoviy tahlili** (olingan tahlil natijalari)” deb nomlangan ikkinchi bobida oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglarining fitokimyoviy, ya'ni o'rganilayotgan obyektlarning kimyoviy birikmalari guruhlarini aniqlab identifikatsiya qilish va miqdoriy tahlil natijalari bayon etilgan.

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibidagi birikmalar yuqori samarali suyuqlik xromatografiya mass-spektrometriya (LC-MS Agilent Technologies 6520B CHIP-Q-TOF) usuli yordamida tahlil qilindi va 11 ta birikma aniqlandi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibida aniqlangan birikmalar


Molekulyar ma'lumot	Mos -ligi	Hisob-ning mosligi	RT*	Scan	Qo'shim cha/yo'q otish	Xato (ppm)	Xato (mDa)	Mos keldi m/z
Giperozid 464.0955	Ha	0.999	7.88	473	H <sup>+</sup>	152.782	71.059	465.1738
Rutin 610.1534	Ha	0.995	9.31	559	H <sup>+</sup>	115.532	70.608	611.2313
Kempferol 286.0477	Ha	0.994	12.07	725	Na <sup>+</sup>	699.662	216.222	309.2532
Kversetin 302.0427	Ha	0.994	11.07	720	H <sup>+</sup>	151.780	70.061	303.1110
Izoramnetin 316.0583	Ha	0.993	7.02	421	Na <sup>+</sup>	323.316	109.620	339.1571
Apigenin 270.0528	Ha	0.987	12.07	725	K <sup>+</sup>	767.594	237.199	309.2532
Epigallokatexin 306.0740	Ha	0.993	7.02	421	CH <sub>3</sub> OH H <sup>+</sup>	146.560	49.699	339.1571
Gall kislota 170.0215	Ha	0.979	4.89	93	K <sup>+</sup>	953.772	199.324	209.1840
Olma kislota 134.0215	Ha	0.996	3.53	211	NH <sub>4</sub> <sup>+</sup>	248.041	37.716	152.0931
Limon kislotasi 192.0270	Ha	0.918	1.77	05	K <sup>+</sup>	550.876	127.247	231.1174
Furokumarin (Psoralen) 186.0317	Ha	0.998	4.92	295	Na <sup>+</sup>	778.545	162.732	209.1836

RT\*-ushlanish vaqti

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari quruq ekstrakti tarkibida flavonoid va ularning glikozidlari mavjudligi aniqlandi: apigenin (RT 12.07) 309.25

m/z  $[M+K^+]^+$ , kempferol (RT 12.07) 309.25 m/z  $[M+Na^+]^+$ , izoramnetin (RT 7.02) 339.15 m/z  $[M+Na^+]^+$ , kversetin (RT 11.07) 303.11 m/z  $[M+H^+]^+$ , giperozid (RT 7.88) 465.17 m/z  $[M+H^+]^+$ , rutin (RT 9.31) 611.23 m/z  $[M+H^+]^+$ , epigallokatexin (RT 7.00)  $[CH_3OHH^+]$  ionlar shaklda 339.1571 m/z ni ko'rsatadi. Kumarinlardan furokumarin (Rt 4.92) 209.18 m/z  $[M+Na^+]^+$ , organik kislotalardan olma kislotasi (Rt 3.53) 152.09 m/z  $[M+Na^+]^+$ , limon kislotasi (Rt 1.77) 231.11 m/z  $[M+K^+]^+$  va gall kislotasi (Rt 4.89) 209.18 m/z  $[M+H^+]^+$  ionlar shaklida aniqlandi.

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari quruq ekstrakti tarkibidagi flavonidlar YuSSX usulida tahlil qilish natijasida flavonoidlar va ularning glikozidlari borligi aniqlandi (1-rasm).



**1-rasm. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) quruq ekstrakti flavonoidlarining YuSSX xromotogrammasi**

Ilk bora, olib borilgan izlanishlar natijasida oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari quruq ekstrakti tarkibida rutin (164.448 mg/g), kversetin (37.521 mg/g), giperozid (0.835 mg/g), apigenin (11.604 mg/g) va kempferol (5.654 mg/g) borligi aniqlandi. Tekshirilayotgan quruq ekstrakt tarkibidagi miqdoriy jihatdan ustun flavonoid rutin (164.448 mg/g) ekanligi aniqlandi. Rutin bir qator kasalliklarda samarali ta'sirini (jumladan, o'sma kasalligiga qarshi, antioksidant) namoyon qilishi va nojo'ya ta'siri yo'qligini inobatga olib, ushbu birikma hamda uni saqlaydigan dorivor o'simlik xom ashyosini istiqbolli manba sifatida tavsiya qilish mumkin.

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglaridan suvda eruvchi polisaxaridlar (SEPS), pektin moddalari (PM) va gemisellulozalar (GMS) ajratib olindi va polisaxaridlarning monosaxaridlari tarkibi o'rganildi.

Xromatografik tahlil natijalariga ko'ra spirtida eriydigan qandlar fruktoza va saxarozadan iboratligi aniqlandi. Ajratib olingan polisaxaridlarning miqdori va monosaxaridlar tarkibi 2-jadvalda keltirilgan.

**Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglaridan ajratib olingan polisaxaridlarning miqdori va ularning monosaxarid tarkibi**

PS turi	Miqdori, %	Monosaxarid qoldiqlarining nisbati						UA, QX	$\eta_{OTH}$ (1%, p-p)
		Gal	Glc	Ara	Man	Xyl	Rha		
SEPS	2.2	3.0	2.0	3.0	-	1.5	1.0	-	2.46
PM	3.0	3.0	-	4.0	-	1.0	1.0	+	5.57
GMTS	12.0	3.0	1.0	3.0	1.0	4.0	-	+	1.6


Ajratib olingan polisaxaridlarni IQ-spektroskopiyasi usuli yordamida tahlili 2-3 rasmlarda keltirilgan.

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglarining pektin moddalarini (PM) IQ-spektrida  $3253\text{ cm}^{-1}$  sohasida -OH guruhlariga xos bo'lgan keng yutilish sohasi mavjud. Monosaxaridlar tarkibi uron kislotalarini o'z ichiga olgan polisaxaridlar IQ-spektrlarida  $1700$ ,  $1720$  va  $1228\text{ cm}^{-1}$  sohasida yutilish mavjudligi bilan ifodalanadi, bu karboksianiondagi C=O bog'lanishiga (COO-) va  $1228\text{ cm}^{-1}$  efir guruhlarining tebranishlariga mos keladi.  $1613$  va  $1419\text{ cm}^{-1}$  yutilish sohasi ionlashgan karboksilga mos kelishi mumkin. Metallning tabiatiga qarab, ya'ni karboksil guruhidagi vodorod o'rnini bosuvchi metall ioni o'zni o'zgaradi.  $1324$ ,  $1145$  va  $1015\text{ cm}^{-1}$  IQ-spektridagi qolgan to'liq chiziqlari bir qator funksional guruhlarni ifodalaydi. - CH, C-O-C, OH, C-C, C-O.  $828$  va  $759\text{ cm}^{-1}$  dan boshlanadigan intensivlikdagi yutilish sohalari  $\alpha$  va  $\beta$  glikozid bog'larini ifodalaydi (2-rasm).



**2-rasm. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglaridan ajratib olingan pektin moddalarining IQ-spektri**

Gemisellyulozalarning (GMS) IQ-spektrini tahlil qilish natijasida -CH guruhlarining deformatsion simmetrik va assimetrik yutilish sohaslariga mos keladigan  $3225\text{ cm}^{-1}$  da keng intensiv yutilish sohasi, shuningdek  $2970\text{ cm}^{-1}$  da past intensivlikdagi yutilish sohasini qayd etish mumkin.  $1562\text{ cm}^{-1}$  kristalli suvning yutilish sohasini ko'rish mumkin.  $1398\text{ cm}^{-1}$  dagi yutilish sohasi ionlangan karboksilni (COO-) ko'rsatadi. Odatda, uron kislotalari GMS gidrolizatida deyarli har doim mavjud.  $1335\text{ cm}^{-1}$  da -OH gidroksil guruhlarining tebranishlari bilan bog'liq. Piranoz shaklida monosaxaridlarning mavjudligi  $1043\text{ cm}^{-1}$  yutilish sohasida aks etgan.  $915$ ,  $770\text{ cm}^{-1}$  yutilish chiziqlari polisaxarid molekulasida  $\alpha$  va  $\beta$ -glikozid bog'lari mavjudligini ko'rsatadi (3-rasm).



### 3-rasm. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglaridan ajratib olingan gemisellyulozaning IQ-spektri

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglarining oqsil tuzuvchi aminokislota tarkibini tadqiq qilish yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida Agilent Technologies 1200 xromatografiya qurilmasida amalga oshirildi. Barg tarkibida 20 ta erkin aminokislotalar mavjudligi aniqlanib, ular orasida sakkiztasi almashinmaydigan (valin, metionin, fenilalanin, treonin, leytsin, izoleytsin, lizin, triptofan), 2 tasi qisman almashinmaydigan (gistidin va arginin) va 10 tasi almashinadigan aminokislotalardir (alanin, asparagin, glutamin, asparagin va glutamin kislotalari, prolin, glitsin, sistein, tirozin, serin) (3-jadval).

### 3-jadval

#### Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibidagi aminokislotalar miqdori

№	Aminokislotalarning nomi (AK)	Molyar massa (g/mol)	AK miqdori		
			mg/g	%	AK umumiy massasidagi ulushi, %
1.	Asparagin kislota	133.1	0.909494	0.091	3.131
2.	Glutamin kislota	147.13	0.230207	0.023	0.792
3.	Serin	105.09	0.641163	0.064	2.207
4.	Glitsin	75.07	3.001708	0.300	10.334
5.	Asparagin	132.12	2.97329	0.297	10.236
6.	Glutamin	146.14	1.209437	0.121	4.163
7.	Sistein	121.16	8.06079	0.806	27.752
8.	Treonin	119.12	1.283847	0.128	4.420
9.	Argenin	174.20	3.910585	0.391	13.463
10.	Alanin	89.09	0.254017	0.025	0.874
11.	Prolin	115.13	0.177353	0.018	0.610
12.	Tirozin	181.19	0.791823	0.079	2.726
13.	Valin	117.15	0.45842	0.046	1.578
14.	Metionin	149.21	0.06461	0.006	0.222
15.	Izoleytsin	131.17	0.209765	0.021	0.722
16.	Leytsin	131.17	0.181899	0.018	0.626
17.	Gistidin	155.15	0.735453	0.073	2.532
18.	Triptofan	204.23	2.011445	0.201	6.925
19.	Fenilalanin	165.19	1.747872	0.175	6.018
20.	Lizin HCl	146.19	0.192783	0.019	0.664

Proteinogen aminokislotalarning umumiy miqdori 29.0459 mg/g ni tashkil etdi. Ulardan gistidin ulushini inobatga olib hisoblanganda almashinmaydigan aminokislotalar 6.8861 mg/g ni, ya'ni umumiy aminokislotalar miqdorining 23.7 % ni tashkil etdi. Almashinmaydigan aminokislotalardan triptofan (2.0114 mg/g), fenilalanin (1.7479 mg/g) va treonin (1.2838 mg/g) ustunlik qiladi.

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglarining "Elberta" navidagi makro- va mikroelementlar tahlili induktiv bog'langan plazmalı mass-spektrometriya (ISP-MS) usulida o'tkazildi va uning tarkibida 44 ta elementning miqdori aniqlandi (4-jadval).

#### 4-jadval


#### Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibidagi makro-va mikroelementlar miqdori

No	Element	mg/l	No	Element	mg/l
Bioelementlar-elementlar-makroelementlar			Potensial toksinli mikroelementlar		
1.	K	4348.084	21.	Sr	1.541
2.	Ca	2409.684	22.	Ti	1.008
3.	P	915.481	23.	Rb	0.533
4.	Mg	890.2018	24.	Sn	0.158
5.	S	677.931	25.	Ga	0.118
6.	Na	204.118	26.	Zr	0.015
K > Ca > P > Mg > S > Na			27.	W	0.014
Essensial mikroelementlar			28.	U	0.006
7.	Fe	123.220	29.	Ag	0.002
8.	Mn	7.270	30.	Ge	0.001
9.	Zn	4.365	31.	Tl	0.001
10.	Cu	2.250	32.	Nb	0.001
11.	Cr	0.756	33.	Cs	0.001
12.	Se	0.090	34.	Re	0.000
13.	Mo	0.036	35.	In	0.000
14.	Co	0.022	Sr > Ti > Rb > Sn > Ga > Zr > W > U > Ag > Ge > Tl = Nb = Cs > Re = In		
Fe > Mn > Zn > Cu > Cr > Se > Mo > Co			Toksik mikroelementlar		
Shartli essensial			36.	Al	25.622
15.	Si	275.035	37.	Ba	0.821
16.	B	3.688	38.	Pb	0.114
17.	Ni	2.368	39.	Hg	0.066
18.	V	0.403	40.	Be	0.054
19.	Li	0.091	41.	Cd	0.008
20.	As	0.097	42.	Sb	0.003
Si > B > Ni > V > Li > As			43.	Bi	0.000
			44.	Ta	0.000
			Al > Ba > Pb > Hg > Be > Cd > Sb > Bi = Ta		

Tahlil natijalari asosida aniqlangan elementdan kaliy va kaltsiy ustunlik qiladi, kaliy miqdori esa kaltsiydan deyarli 2 baravar, natriydan 21 baravar yuqori. Muhim elementlar orasida temir, marganets, rux, shartli zarur elementlar orasida esa kremniy ustunlik qiladi. Zaharli elementlarning konsentratsiyasi tirik organizm

uchun ruhsat etilgan me'yorlardan oshmaydi yoki zararsiz miqdorga ega. Tuproqning sho'rlanishi, Qoraqalpog'istondagi suvning yuqori minerallashuvi va asosiy ulush natriy xlorid va sulfat hamda qisman kalsiy tuzlari bo'lgan Orol dengizining qurigan tubidan tuzli chang chiqindilari sharoitida shaftoli barglarida natriyning nisbatan pastligi anomaldir. Oddiy shaftoli barglari atrof-muhitdan ortiqcha natriy tuzlarini to'plamasligini ko'rsatadi.

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari quruq ekstrakti tarkibidagi amigdalin YuSSX usulida o'rganildi (4-rasm).



**4-rasm. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari quruq ekstrakti tarkibidagi amigdalin YuSSX xromatogrammasi**

Tahlil natijasida oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglarining quruq ekstrakti tarkibida 0.04 mg/g amigdalin (RT 15.976 daq) borligi aniqlandi. Adabiyot manbalariga ko'ra amigdalin o'simtani ingibirlanish xususiyati mavjudligini inobatga olib, ushbu o'simlik xomashyosini saraton kasalligini davolashda qo'shimcha vosita sifatida tavsiya qilish mumkinligini alohida qayd qilish lozim.

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari va quruq ekstrakt tarkibidagi vitaminlarning sifat va miqdoriy tahlili YuSSX usulida o'tkazildi (5-jadval).

#### 5-jadval

#### Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari va quruq ekstrakt tarkibidagi suvda eriydigan vitaminlar miqdori


Suvda eriydigan vitaminlar		Standart namuna	Oddiy shaftoli bargi		Oddiy shaftoli quruq ekstrakti	
		RT*, daq	mg/g	%	mg/g	%
Vitamin C	Askorbin kislotasi	3.100	0.49	31.21	1.03	22.54
Vitamin PP	Nikotin kislotasi	6.592	0.10	6.37	0.21	4.6
Vitamin B <sub>1</sub>	Tiamin	15.228	0.27	17.2	0.84	18.38
Vitamin B <sub>2</sub>	Riboflavin	13.877	0.21	13.38	0.44	9.63
Vitamin B <sub>6</sub>	Piridoksin	12.919	0.39	24.84	1.84	40.26
Vitamin B <sub>12</sub>	Sianokobalamin	13.518	0.11	7.0	0.21	4.6
Umumiy miqdori			1.57		4.57	

RT\*-ushlanish vaqti

Tahlil natijasida tekshiriluvchi namunalarda suvda eriydigan oltita vitamin, ya'ni C, PP va B guruh vitaminlari (B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>12</sub>) aniqlangan. Quruq ekstrakt tarkibidagi vitaminlarning miqdori (4.57 mg/g), barglaridagi vitaminlar miqdoridan (1.57 mg/g) uch baravar yuqori. Piridoksin va tiamin tarkibining qiyosiy natijalari shuni ko'rsatadiki, quruq ekstrakt olish sharoitida ular miqdoriy jihatdan saqlanib qoladi, aniqlangan boshqa vitaminlarning miqdori 30% ga kamayadi. C vitaminining


miqdori barglar uchun maksimal (0.49 mg/g), bu vitaminlarning umumiy miqdorining 31.21 % ni tashkil qiladi. Askorbin kislotasi ekstraktida barglariga qaraganda 2 baravar ko'p bo'lishiga qaramay, vitaminlarning umumiy miqdoriga nisbatan kam (22.54%). Antioksidant faollikka ega bo'lgan C vitamin, organizm hujayralarini zararli erkin radikallar va infeksiyalardan, shuningdek DNK molekulalarining shikastlanishidan himoya qiladi hamda yog'larning metabolizmiga va kollagen va neyrotransmitterlarni sintez qilishga yordam beradi. Koenzim xususiyatiga ega va metabolik jarayonlarni qo'llab-quvvatlovchi B guruh vitaminlari bilan birgalikda ular organizm uchun energiya ishlab chiqaradi

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari quruq ekstrakt tarkibidagi organik kislotalarni YuSSX usulida tahlil qilish natijasida oksalat (96.54 mg/g), limon (29.12 mg/g) va qahrabo (8.41 mg/g) kislotalari mavjudligi aniqlandi (5-rasm).



**5-rasm. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibidagi organik kislotalarning YuSSX xromatogrammasi**

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibidagi efir moyi gidrodistillyatsiya usulida ajratib olindi, chiqish unumi 0.35 % ni tashkil etdi. Ajratib olingan efir moyini GX-MC usulida Agilent 7890 AGC qurilmasida tahlil qilish natijasida 53 ta birikma aniqlandi. Ushbu birikmalar efir moyining 84.75 % ni tashkil qiladi (6-rasm, 6-jadval).



**6-rasm. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari efir moyining xromato-mass-spektri**

Mazkur birikmalar qatoriga terpenlar, ya'ni monoterpen uglevodorodlar (23.81%), oksidlangan monoterpenlar (32.99 %), seskviterpen uglevodorodlar (5.56 %), oksidlangan skvalen (0.03%), kumarin (0.32 %) va boshqa moddalar (22.04 %) kiradi (6-jadval).

**Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris* Mill.) barglari efir moyining kimyoviy tarkibi**

RI\* - Kovach Indeksi (Retention index); RT\*\* - Ushlanish vaqti

Birikma nomi	RI*	RT**	%	Birikma nomi	RI*	RT**	%
Kaproaldegid	1040	1.652	0.19	(E)- $\alpha$ -Osimen	1670	14.492	0.60
$\delta$ -3-Karen	1113	2.137	7.52	$\alpha$ -Amorfen	1679	14.608	0.38
$\beta$ -Pinen	1121	2.227	0.40	Kamfen	1705	15.404	0.20
1,3,5-Siklogeptatrien	1131	2.344	0.06	Benzilalkogol	1754	16.672	2.81
$\delta$ -2-karen	1135	2.395	0.28	Feniletil alkogol	1790	17.577	0.19
D-Limonen	1154	2.615	0.45	Naftalen	1838	19.654	4.57
Evkaliptol	1160	2.674	5.85	(+)-Aromadendren	1843	19.919	0.86
(E)-2-Geksenal	1167	2.758	3.35	Oktan kislota	1877	21.504	0.15
$\beta$ -Osimen	1188	2.997	0.29	$\alpha$ -Ylangen	1878	21.556	0.21
$\alpha$ -Terpinolen	1202	3.217	0.28	Evgenol	2037	23.412	0.17
p-Simen	1205	3.346	0.88	Nonan kislota	2060	23.904	0.40
o-Simen	1206	3.392	0.71	$\gamma$ -Murolen	2068	24.098	3.18
Izoterpinolen	1211	3.631	0.10	Kumenol	2096	24.712	0.49
2,4-Pentadienenitril	1224	4.116	0.13	3-Siklogeksen-1-ol	2187	26.685	0.18
1-Geksanol	1236	4.679	0.11	4-vinil-fenol	2266	23.328	0.15
(E)-3-Geksen-1-ol	1247	5.138	0.09	Xolestan-3-ol	2278	28.580	0.03
Nonanal	1264	5.830	0.38	Kumarin, Benzofuran	2326	29.583	0.32
Perillen	1267	5.979	0.22	Laurik kislota	2376	30.586	0.44
o-Izopropeniltoluol	1282	6.600	2.87	(E)-9-Oktadeken	2508	33.141	0.21
(-)-Kamfora	1425	7.978	2.32	Siklododekan	2587	34.609	0.17
Benzaldegid	1430	8.107	11.58	Karbon kislota	2698	36.621	0.30
( $\pm$ )-Bornil atsetat	1494	9.770	2.31	Palmitin kislota	2797	38.361	2.59
$\alpha$ -Santalen	1508	10.151	0.41	Linoleik kislota	3033	43.031	0.14
$\gamma$ -Terpinen	1522	10.533	1.68	(Z,Z,Z)-7,10,13 geksadekatrienal	3066	44.312	0.17
Lavandulol atsetat	1532	10.818	2.98	Monoterpenli uglevodorodlar			23.81
Benzenasetaldegid	1542	11.070	0.34	Oksidlangan monoterpenlar			32.99
(E)-4-Karen	1546	11.193	0.32	Seskviterpen uglevodorodlar			5.56
( $\pm$ )-Kripton	1578	12.079	3.15	Oksidlangan skvalen			0.03
Izoborneol	1599	12.648	16.22	Kumarin			0.32
Siklogeksen	1613	12.998	1.21	Boshqa moddalar			22.04
Jami							84.75

Yuqoridagi ma'lumotlarda ko'rinib turibdiki, oddiy shaftoli (*Persica vulgaris* Mill.) efir moyining asosiy tarkibiy qismlari quyidagi birikmalardan iborat: izoborneol (16.22%), benzaldegid (11.58%),  $\delta$ -3-karen (7.52%), naftalen (4.57%), evkaliptol (5.85%), (E)-2-geksen-1-al (3.35%),  $\gamma$ -murolen (3.18%), ( $\pm$ )-kripton (3.15%), lavandulol atsetat (2.98%), o-izopropeniltoluol (2.87%), benzil alkogol (2.81%), ( $\pm$ )-bornil atsetat (2.31%), (-)-kamfora (2.32%),  $\gamma$ -terpinen (1.68%), siklogeksen (1.21%).

Dissertatsiyaning “**Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris* Mill.) barglarini biologik faolligini o'rganish** (biologik faollik tahlil natijalari)” deb nomlangan

uchinchi bobida oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari va quruq ekstraktining biologik faolligining tahlil natijalari keltirilgan.

Yallig‘lanishga qarshi ta’siri oq kalamushlarda (180-200 g) “Formalinli yallig‘lanish” usuli yordamida aniqlandi. Tekshiriluvchi preparatlar 7 kun davomida oshqozonga maxsus zond orqali yuborildi. Solishtirish uchun “Zamona Rano” MChJ tomonidan ishlab chiqarilgan “Shalfey” BFQ si olindi. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari quruq ekstrakti 500 mg/kg dozada 3 soatdan keyin yallig‘langan oyoqning shishini nazorat bilan solishtirganda 47 % ga sezilarli darajada kamaytirdi. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglaridan olingan quruq ekstrakt ishonchli yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega ekanligi isbotlandi.

Immunomodulyator ta’siri erkak sichqonlarida (20-22 g) “Timus atrofiyasi” modelida o‘rganildi. Solishtirish uchun “Lek d.d.” MChJ tomonidan ishlab chiqarilgan “Immunal” sashesi tanlab olindi. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari quruq ekstrakti bilan tekshirilgan sichqonlar timus massasining nazorat guruhiga nisbatan 26.8 % ga va taloq massasining 48 % ga oshganligini ko‘rsatdi. Natijada oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglaridan olingan quruq ekstrakt ishonchli immunomodulyatorlik ta’sirga ega ekanligi aniqlandi.

Erlix adenokarsinomaga qarshi faolligi zotsiz tajriba oq sichqonlarida (20-22 g) tayyorlangan preparatlarni *in vivo* sharoitida Erlix adenokarsinoma o‘sma shtammasining solid shaklida o‘smaning I-bosqichida qorin bo‘shlig‘iga inyektsiya va per os shaklida yuborib tahlil qilindi (7-jadval).

## 7-jadval

### Tekshirilayotgan preparat va nazorat guruh hayvonlarini o‘smaga qarshi ta’sirlarining umumlashtirilgan natijalari

Guruh	Hayvonlar soni	Hayvonlar massasi, g	Hayvonlar soni 15 kundan so‘ng	Hayvonlar massasi, 15 kundan so‘ng	O‘sma hajmi, V sm <sup>3</sup>	O‘sma massasi, g	Taloq, massasi, g	Jigar massasi, g	O‘smaning ingibirlanish darajasi (V bo‘yicha), %	O‘smaning ingibirlanish darajasi (m bo‘yicha), %
Nazorat guruhi	5	21	4	24.3	3.4	4.6	0.269	1.554	0	0
25 doza	5	19	3	19.4	1.83	1.8	0.717	1.626	47.05882	60.86957
50 doza	5	20	3	21.1	0.9	0.47	0.257	1.505	73.52941	89.78261

Tahlil natijasida Erlix adenokarsinoma o‘sma shtammida o‘sma o‘shining I-bosqichida 50 doza qabul qilgan guruhda o‘sma hajmining yuqori ekanligi (73.5%) va o‘sma massasining (89.7%) ingibirlanishi kuzatildi. Gistologik tekshiruv natijasida o‘simta hujayralarining 70-80% fibroz va nekrozga uchraganligi aniqlandi hamda taloq va jigarning to‘qimalarida distrofik buzilishlar kuzatilmadi.

Tajriba sharoitida o‘rganilayotgan ovqatga qo‘shiladigan BFQ “SELPERS-KR” o‘tkir zaharliligini aniqlash hayvonlarning tana og‘irligiga nisbatan 5000 mg/kg dozada me‘da ichiga bir marta kiritish yo‘li bilan o‘tkazildi. Ovqatga qo‘shiladigan BFQ “SELPERS-KR” kumulyativ xususiyati oq kalamushlarda (110-120 g) “Lim et an” usuli bilan baholandi. Tajriba hayvonlari o‘rganilayotgan qo‘shimchani nativ ko‘rinishida 28 kun davomida ovqat bilan qabul qildilar. Oddiy

shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglarining ekstraktidan tayyorlangan “SELPERS-KR” BFQ ning o‘tkir zaharliligini tahlil qilish natijasida qonning morfologik tarkibiga va ko‘zning shilliq qavatiga ko‘rsatadigan sensibilizatsiyalovchi o‘tkir va o‘tkir osti ta’sirlari bo‘yicha kam zaharli va amaliy jihatdan zaharsiz bo‘lgan preparatlariga kiritish mumkin (DST 12.1.007 bo‘yicha IV xavflilik sinfi va gigienik tasnif bo‘yicha V xavflilik sinfi).

Dissertatsiyaning “**Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglarining kimyoviy tarkibini va biologik faolligini o‘rganish (tajriba qism)**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibidagi flavonoidlar, polisaxaridlar, aminokislotalar, elementlar, amigdalin, vitaminlar, efir moyini, immunomodulyator, yallig‘lanish va Erlix adenokarsinoma o‘smasiga qarshi ta’siri ha‘mda o‘tkir zaharliligini aniqlash usullari haqida ma’lumotlar berilgan.

### XULOSALAR

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) o‘simligi “Elberta” navining kimyoviy komponentlari va biologik faolligi yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ilk bora Qoraqalpog‘iston Respublikasi tuproqning sho‘rlanishi iqlim sharoitida o‘stirilgan oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) o‘simlik barglarining kimyoviy tarkibi tadqiq etildi. O‘simlik barglari tarkibida asosiy ta’sir etuvchi birikma flavonoidlar tarkibini YuSSX va YuSSX-MS usullari yordamida o‘rganish natijasida, uning tarkibida rutin, kversetin, apigenin, kempferol, giperozid, epigallokatexin, izoramnetin mavjudligi ko‘rsatildi hamda flavonoidlar yig‘indisidan ustun bo‘lgan birikma rutin ekanligi isbotlandi.

2. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibida suvda eruvchi polisaxaridlar, pektin moddalari va gemisellulozalar ajratib olindi. Monasaxarid tarkibi arabinogalaktanlarga mansub ekanligi va spirtida eriydigan qandlar fruktoza, saxarozadan iboratligi hamda polisaxaridlarning eng ko‘p miqdori gemisellulozalar ekanligi aniqlandi.

3. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibida 20 ta erkin aminokislotalar mavjudligi, ular orasida 8 tasi almashinmaydigan, 2 tasi qisman almashinmaydigan va 10 tasi almashinadigan aminokislotalar ekanligi aniqlandi hamda o‘simlik barglari tarkibida 44 ta makro- va mikro elementlar induktiv bog‘langan plazmali mass-spektrometriya (ISP-MS) usulida aniqlanib, ulardan K va Ca ustunlik qilishi, K miqdori esa Ca dan deyarli 2 baravar, Na dan 21 baravar yuqori ekanligi isbotlandi. Tarkibidagi zaharli elementlarning miqdori tirik organizm uchun ruxsat etilgan me‘yorlardan oshmasligi asoslab berildi.

4. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari tarkibida suvda eruvchi vitaminlardan C, PP va B guruhi vitaminlari (B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>12</sub>) aniqlandi. Quruq ekstrakt tarkibidagi vitaminlarining miqdori, barglardagi vitaminlar miqdoridan uch baravar yuqoriligi isbotlandi. O‘simlik barglari tarkibida organik kislotalardan - oksalat, limon, qahrabo, shuningdek amigdalin glikozidi borligi aniqlandi va o‘simlik barglari efir moyi tarkibi GX-MS usuli yordamida tadqiq qilish natijasida 53 ta birikma mavjudligi isbotlandi.

5. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari quruq ekstrakti immunomodulyatorlik ta'siri 500 mg/kg dozadagi "Immunal" dan kam emasligi va yallig'langan oyoqning shishini 47 % ga sezilarli darajada kamaytirishi aniqlandi. Erlix adenokarsinoma o'sma o'sishining I-bosqichida 500 mg/kg dozada o'smani 89.7 % ga ingibirlashi isbotlandi.

6. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglari quruq ekstrakti asosida "Halsica" MChJ bilan hamkorlikda "SELPERS-KR" BFQ ishlab chiqildi, uning o'tkir zaharliligini aniqlash natijasida IV-guruh zaharsiz birikmalar sinfiga tegishli ekanligi ko'rsatildi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash vazirligidan ushbu BFQ ni sanoat miqyosida ishlab chiqarishga ruxsatnoma (16.08.2023.001863-son) olindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕН  
PhD 03/30.12.2019.К.05.01 ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**КАРАКАЛПАКСКИЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ  
ИНСТИТУТ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК**

**АБДУРАСУЛИЕВА ГУЛШАД МАХСЕТБАЕВНА**

**ФИТОХИМИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИСТЬЕВ ПЕРСИКА  
ОБЫКНОВЕННОГО (*PERSICA VULGARIS MILL.*),  
ПРОИЗРАСТАЮЩЕГО В КАРАКАЛПАКИСТАНЕ**

**02.00.10-Биоорганическая химия**

**АВТОРЕФРАТ диссертации доктора философии (PhD)  
по ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Фергана-2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.1Phd/K730**

Докторская диссертация выполнена в Каракалпакский научно-исследовательский институт естественных наук.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Фарманова Нодира Тахировна</b> доктор химических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Матчанов Алимжан Давлетбаевич</b> доктор химических наук, профессор <b>Нишонов Миркозимжон</b> кандидат технических наук, профессор
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Кокандский государственный педагогический институт</b>

Защита диссертации состоится “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 г. в \_\_\_ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.K.05.01 при Ферганском государственном университете (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19. Тел.: (998 73) 244-44-02; факс: (998 73) 244-44-93, e-mail: [fardu\\_indu@umail.uz](mailto:fardu_indu@umail.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_\_). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19. Тел.: (998 73) 244-44-02, факс: (998 73) 244-44-93, e-mail: [fardu\\_indu@umail.uz](mailto:fardu_indu@umail.uz)).

Автореферат диссертации разослан “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 г.  
(Реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 г).

**В.У.Хужаев**  
председатель Научного совета по  
присуждению учёных степен,  
доктор химических наук, профессор

**Ш.Ш.Тургунбаев**  
учёный секретарь Научного совета  
по присуждению учёных степен,  
доктор философии по химическим наукам (PhD)

**Ш.В.Абдуллаев**  
председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению учёных  
степен, доктор химических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** На сегодняшний день в мире большое внимание уделяется исследованиям лекарственных растений, содержащих биологически активные вещества, необходимые для здоровья человека, которые используются для профилактики и лечения различных заболеваний. Препараты биологически активных соединений растительного происхождения отличаются возможностью безопасного и длительного использования, а также комплексным воздействием природных соединений и эффективным действием по сравнению с синтетическими средствами. Известно, что эффективность природных средств объясняется специфической биологической активностью содержащихся в них флавоноидов, эфирных масел, полисахаридов, витаминов и других соединений. Особое значение имеет химическое исследование растений, которые содержат биологически активные соединения и создание на их основе лекарственных средств для медицинской практики.

В мире проводятся обширные исследования по определению основных групп биологически активных веществ и их фармакологической активности путем изучения химического состава растений, относящихся к семейству *Rosaceae*. Представитель данного семейства персик обыкновенный (*Persica vulgaris Mill.*) широко используется в медицине в качестве иммуномодулятора, антиоксиданта, а также противовоспалительного и обезболивающего средства. Учитывая эти особенности, в целях разработки качественных, безопасных, эффективных и гарантированных лекарственных средств и биологически активных добавок, уделяется внимание созданию и внедрению в практику научно обоснованных составов в удобных для применения форм.

В нашей республике также проведены ряд исследований по созданию эффективных, импортозамещающих лекарственных средств и биологически активных добавок на основе растений и достигнуты определенные результаты. В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 21 января 2022 года №УП-55<sup>1</sup> «О дополнительных мерах по ускоренному развитию фармацевтической отрасли Республики в 2022-2026 годах» определены задачи, направленные на совершенствование методов получения биологически активных соединений, «организацию научных исследований и разработок по дальнейшему внедрению инновационных технологий в производство лекарственных средств, изделий медицинского назначения и медицинской техники, а также внесение предложений и локализацию производства». В этом отношении особое значение имеет выделение и разработка импортозамещающих лекарственных средств с противовоспалительным действием, а также используемых для лечения труднозаживающих ран и рака из листьев персика обыкновенного (*Persica vulgaris Mill.*), который обладает высоким фармакологическим действием.

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по ускоренному развитию фармацевтической отрасли республики в 2022 — 2026 годах”

Данная диссертационная работа служит в определенной степени при реализации задач, поставленных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-4670 от 10 апреля 2020 года «О мерах по охране, культурному выращиванию, переработке дикорастущих лекарственных растений и рациональному использованию имеющихся ресурсов», № ПП-251 от 20 мая 2022 года «О мерах по организации культурного выращивания, переработки и широкого использования лекарственных растений в лечении»<sup>2</sup>, а также других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

